

KVINOA (*Chenopodium quinoa* Willd.)NING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Ko'chkeldiyeva Shahnoza Chorshanbiyevna

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti tayanch doktoranti,
Termiz shahri, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi qishloq xo'jaligi ekini bo'lgan kvinoa o'simligining tarkibi hamda dorivorlik xususiyatlari, oziq-ovqat sanoatida qo'llanilishi haqida olimlarning tadqiqotlari natijasida olingan ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Kvinoa, Janubiy Amerika, And tog'lari, protein, vitaminlar, kosmo-diet ekin.

Аннотация. В данной диссертации приводятся данные, полученные в результате исследований ученых о составе растения квиноа, являющегося сельскохозяйственной культурой, а также о его лечебных свойствах и применении в пищевой промышленности.

Ключевые слова. Киноа, Южноамериканская, Андская, белковая, витаминная, космодиетная культура.

Annotation. This thesis presents data obtained from the research of scientists about the composition of quinoa, an agricultural crop, as well as its medicinal properties, its application in the food industry.

Keywords. Quinoa, South America, Andean mountains, protein, vitamins, Cosmo-diet crop.

Kvinoa (*Chenopodium quinoa* Willd) - ekini Janubiy Amerika mintaqalarining eng muhim o'simliklaridan biri hisoblanadi. Shuningdek ushbu o'simlik cho'l sharoitlariga, issiq va quruq, ayozli va sovuq iqlimga mos keladi va namlik 40-88% bo'lgan joylarda o'sishi mumkin. Havo harorati -4 dan +45 o C gacha haroratga bardosh beradi. Kvinoa qadim zamonlardan beri Janubiy Amerika And tog'larida yetishtirilgan va mahalliy aholi uchun asosiy oziq-ovqat ekini hisoblanadi. Kvinoa odatda ko'proq proteinni o'z ichiga oladi. Bu insonni uzoq vaqt davomida tetiklikni to'liq his qilishni ta'minlaydi. Kuxarenkova O.V va Kurenkova Ye.M tomonidan kvinoa ekinining biologik xususiyatlari ushbu ekinni barcha turdagi agroekologik va agroiqlimlarda yetishtirish imkonini beradi. Tarkibidagi organik moddalar vitaminlar ko'pligi sababli qishloq xo'jaligida ham ushbu ekinni yetishtirishga talab yuqori. E.E.Gridneva, G.Sh.Kaliakparova, S.U.Abdibekov ma'lumotlariga ko'ra, kvinoaning bir qancha xususiyatlari keltirilgan. Jumladan:

- turli iqlim sharoitlariga moslashish qobiliyati ya'ni -4 dan +35 ° C gacha bo'lgan harorat ham kvinoaning o'sishi va rivojlanishiga imkon beradi;

- barqarorlik va ko'p qirralilik, dengiz sathidan 4000 m gacha turli balandliklarda, pasttekisliklarda va tog'larda o'sishi mumkin;

- ekologiyaga zararli ta'siri yo'q ya'ni kvinoa tuproq unumdorligini saqlaydi va himoya qiladi;

-sog'lom oziq-ovqat mahsulotlari toifasiga kiradi ya'ni tarkibidagi oqsillar, aminokislotalarning yuqori miqdori kislotalar, minerallar, vitaminlar, yog'lar, shuningdek, boshqa oziq moddalar ko'p miqdorda uchraydi.

- Turli taomlar, salatlar, pishiriq mahsulotlarini pishirish uchun ishlatiladi va turli ichimliklar ham tayyorlanadi;

- NASA kvinoani kosmo-diet uchun ideal mahsulot sifatida (uni kosmosda o‘stirish mumkin) deb baholaydi;

- yashil massa shaklida hayvonlarning ozuqasi sifatida chorvachilikda ham foydalanish imkonini beradi.

Nanduri K.Rao o‘zining olib borgan izlanishlari asosida kvinoa o‘simligini shunday deb ataydi: “Kvinoa – iqlimga mos qishloq xo‘jaligi uchun kelajak ekinidir.” Va ushbu fikriga asoslanib, o‘z ma’lumotlarida kvinoaning barcha xususiyatlarini keltirib o‘tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Куренкова Евгения Михайловна, Кухаренкова Ольга Владимировна
“МИРОВОЙ РЫНОК КИНОА”. Ст.901-905

2. Rao, N. K. (2016). “Quinoa: a future-proof crop for climate smart agriculture,” in Global Forum for Innovations in Agriculture-2016, ed R. Choukr-Allah (Abu Dhabi).

3. Redouane Choukr – allah, Kameswara R. Nanduri, Abdelaziz Hirich, Mohammad Shahid, Abdullah Alshankiti, Kristina Toderich, Shagufta Gill and Khalil Ur Rahman Butt. 2016, Quinoa for marginal environments: Towards future food and nutritional security in MENA and Central Asia regions. Frontier in Plant Science, V 7; pp. 346-359 (2016)

4. www.refseek.com (<http://www.refseek.com/>)

5. www.worldcat.org (<http://www.worldcat.org/>)